

Date: 21st April-2025

**PSIXOLOGIYADA EKSPERIMENTAL METOD TARIXINING NAZARIY
O'RGANILISHI**

Sunnatova Tozagul Shodiyorovna
O'ZJOKU. Psixologiya 40.20 talabasi

Annotatsiya. Maqolada psixologiyada eksperimental metodi yuzaga kelish tarixi, dastlabki rivojlanish bosqichlari va zamonaviy psixologiyada tutgan o'ni tahlil qilinadi. Eksperimental metod psixologiyani ilmiy fan sifatida shakllantirgan asosiy usul bo'lib, insonning ruhiy jarayonlarini empirik tadqiq qilish imkoniyatini bergan. Dastlabki bosqichda bu metod falsafiy va fiziologik izlanishlarga asoslangan bo'lsa, Vilgelm Vundt tomonidan 1879 yilda Leypsig universitetida birinchi psixologik laboratoriya tashkil etilgach, psixologiya mustaqil fan sifatida rivojlanishni boshlaganligini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Eksperimental, usul, psixologiya tarixi, psixologik laboratoriya, introspeksiya, strukturalizm, funksionalizm, kognitiv psixologiya, xulq-atvor tadqiqoti, psixik jarayonlar, empirik tadqiqot.

Annotation. The article analyzes the history of the emergence of the experimental method in psychology, its initial stages of development and its role in modern psychology. The experimental method is the main method that formed psychology as a scientific discipline, providing an opportunity for empirical research into human mental processes. At the initial stage, this method was based on philosophical and physiological research, but after Wilhelm Wundt established the first psychological laboratory at the University of Leipzig in 1879, we can see that psychology began to develop as an independent discipline.

Keywords: Experimental, method, history of psychology, psychological laboratory, introspection, structuralism, functionalism, cognitive psychology, behavioral research, mental processes, empirical research.

Аннотация: В статье анализируется история возникновения экспериментального метода в психологии, начальные этапы его развития и его роль в современной психологии. Экспериментальный метод является основным методом, сформировавшим психологию как научную дисциплину, обеспечивающую возможность эмпирического исследования психических процессов человека. Хотя изначально этот метод основывался на философских и физиологических исследованиях, мы видим, что психология начала развиваться как самостоятельная наука, когда в 1879 году Вильгельм Вундт основал первую психологическую лабораторию в Лейпцигском университете.

Ключевые слова: Экспериментальный, метод, история психологии, психологическая лаборатория, интроспекция, структурализм, функционализм, когнитивная психология, поведенческие исследования, психические процессы, эмпирические исследования.



Date: 21st April-2025



Psixologiya fanida eksperimental metodi o'zining dolzarbligi uning inson ruhiy jarayonlarini ilmiy asosda yondashishida muhim vosita bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanib turadi. XXI asrda inson ongini, xatti-harakatlarini va hissiy holatlarini chuqur tushunish faqat empirik va obyektiv tadqiqotlar orqali amalga oshirilishi mumkin bilan ajralib turadi. Eksperimental metodlar psixologiya yo'nalishining turli ko'rinishlarida – klinik, ta'lim, ijtimoiy, kognitiv va neyropsixologiyada keng qo'llanilib, zamonaviy diagnostika usullarini yaratish va ruhiy salomatlikni yaxshilash bo'yicha samarali choralarni ishlab chiqishga imkon yaratayotganini kuzatishimiz mumkin.

Eksperimental metod tarixi haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak. **Eksperimental psixologiya** — psixik hodisalar va jarayonlarni ilmiy metodlar yordami bilan tadqiq qilish. Psixologiyaning fan sifatida falsafadan ajralib chiqishida eksperimental tadqiqotlar o'tkazish asosiy rol o'ynagan. XIX asrning o'rtalarida ilk bor sezgi, idrok yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan. Eksperimental psixologiyaning fan sifatida ajralib chiqishiga nemis olimi V.Vundt katta hissa qo'shgan. Ilk eksperimental tadqiqotlar o'zini o'zi kuzatish uslubi yordami bilan shaxsning ichki mayllari, motivlari, fikr yuritishiga bag'ishlangan. Keyinchalik tekshirishlar turli hayvonlarda o'tkazila boshlagan. Ko'p tadqiqotlarni AQShlik T.L.Morgan, E.L.Torndayk va boshqalar olib borganlar. Eksperimental psixologiya murakkab tadqiqot (ko'p shkalali, ko'p bosqichli) metodlari, metodikalari (ishonchliligi, kafolatliligi, test yoki retest xususiyatiga egaligi)dan tashqari elektron hisoblagichlar, texnik asboblari va moslamalar, sodda yoki murakkab tuzilgan maxsus apparatlar, zamonaviy texnika va texnologiyalarga asoslanadi. Eksperimental psixologiya yordamida psixik funksiyalargina emas, shu bilan birga shaxs hissiyoti, emotsiyasi, individual xususiyati, diqqat, xotira, idrok singari bilish jarayonlari ham tadqiq qilinadi.

Eksperimental psixologiyaning vazifalari: 1. Psixologiya fanida eksperiment o'tkazishning qonunlari, tartibi va tamoyillari bilan tanishtirishdan iborat. 2. Turli metodikalar yordamida shaxsning psixik jarayonlari, holatlari va psixomotor rivojlanishini o'rganishdir. Ma'lumki, XIX asr fizika, biologiya, fiziologiya, ximiya va boshqa fanlarning rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Fanda paydo bolgan eksperimental metodning keng qo'llanilishi bu fanning rivojlanishiga yordam berdi. XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlaridayoq psixologlar o'rtasida psixik hodisalarni o'rganishda eksperimentni tatbiq qilish mumkin emasmikan, degan muammo paydo boldi. Bu muammo bo'yicha faylasuf Kant o'z fikrini bildirdi. Uning fikricha, psixologiyada eksperimentning bo'iishi mumkin emas, chunki psixik hodisalarni o'lchash mumkin emas, ularga matematikani tatbiq qilish ham mumkin emas.

Eksperiment nazariyani tekshirib ko'rish uchun o'tkaziladi. Nazariya ichki bilishning nutqiy tizimiga izoh beradi. Nazariyaning mantiqiy qismlari bir-birini rad etadi. Nazariya asosida uning tushunarli obyektiv haqiqatlari yotadi. Mavjud ko'plab shakllar nazariy bilish: qonunlar, tasniflar va turlar, modellar, chizmalar, farazlardan iborat. Har bir nazariya o'z ichiga quyidagi tarkibiy qismlarni oladi: 1. Empirik oqibatlar poydevori (dalillar, empirik qonun-qoidalar). 2. Asos - ko'plab birlamchi sharoitlar (faraz, shart-

Date: 21st April-2025



sharoitlar farazi, aksioma), bu nazariyaning fikriy obyekti sifatida qaraladi. 3. Ko'plab nazariyalar asosiy nazariy bilimlarni mustahkamlaydi. Nazariy bilimlar tarkibiy qismlarining kelib chiqishi turlichadir. Nazariyaning empirik tuzilishi tadqiqot va eksperiment natijalari bilan izohlanadi. Nazariyaning ideallashtirilgan obyekti o'zi bilan (tanish) aniqlikning tanish-ramziy modelini yaratadi. Qonunlar nazariyani shakllantiradi, ayni paytda (aniqlikni) borliqni emas, ideal obyektini ta'riflaydi. Uslubiy qurilma aksiomani va gipotetik-deduktiv nazariyalarni rivojlantiradi. Birinchidan, nazariyaning ramkasi bo'lmish, isbot talab etmaydigan, zarur va yetarli bo'lgan aksiomalardan qurilgan bo'ladi. Ikkinchidan, farazlarning empirik, induktiv asoslari mavjudligi, nazariyalar matematik apparatning sifat qurilmasi tarzida, shaklan, rasmiy tomondan rivojlanadi.

Psixologiyada empirik metodlarni qo'llash muammosi ko'rib chiqilayotganda ularni psixologik metodlar tizimidagi o'rinni aniqlashdan boshlash kerak. Empirik metodlarni qo'llashning beshta darajasini ajratish mumkin: 1. Metodika darajasi. 2. Metodik qo'llanma darajasi. 3. Metod darajasi. 4. Tekshirishni tashkil qilish darajasi. 5. Metodologik yondashish darajasi. To'g'ri, «metod» atamasini turli darajada ishlatish bo'ladi, masalan, psixofizikada - o'rtacha xatolar metodi, chegara metodi bor; psixodiagnostikada - proektiv metod (ikkinchi daraja); psixosemantikada semantik differensial metod va repertuar kataklar metodi haqida gapiriladi (birinchi daraja); yosh davrlari psixologiyasida psixogenetik metod to'g'risida bahs yuritiladi va uning turli xilligi - egizaklar metodida (to'rtinchi daraja) ko'rsatilgan.

Eksperimental psixologiyani o'rganishdan maqsad psixika rivojlanishining individual va yosh xususiyatlarini bilgan holda ularni ob'ektiv metod va usullar bilan o'rganishdan iborat. Eksperimental psixologik tadqiqotlar psixodiagnostik tadqiqotlardan tubdan farq qiladi. Psixodiagnostik tadqiqotda aniq individ yoki individlar guruhi haqida ma'lumot olinadi, eksperimental tadqiqotda nazariy faraz tekshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Вундт В. “Основы физиологической психологии”. – Лейпциг, 1874.
2. Фехнер Г. “Элементы психофизики”. – Лейпциг, 1860.
3. Павлов И.П. “Условные рефлексы”. – Москва: Госиздат, 1927.
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi
5. Z. Nishonova, D. Qarshiyeva Eksperimental Psixologiya. Toshkent - 2007
6. Neisser, U. “Cognitive Psychology”. – New York: Appleton-Century-Crofts, 1967.